AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKKA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA ZO‘RAVONLIKNING TURLARI

Eshankulova Irodaxon Avazxanovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
e-mail: irabonu@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu tezisda zo‘ravonlik ko‘pincha ayollarga nisbatan sodir etilib, zo‘ravonlikning asosiy jihati ayollar jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli emas degan fikrning mavjudligi, ayollarga nisbatan past nazar bilan qaralishi oqibatida vujudga kelishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari, unga ta’sir etuvchi omillar va zo‘ravonlik muammosini bartaraf etish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, travma, zo‘ravon, stress, shikast, jarohat.

Annotation: This thesistypes of violence against women, factors affecting it, and conclusions and suggestions for eliminating the problem of violence are presented. Violence is often committed against women, and the main aspect of violence is the existence of the opinion that women do not have equal rights with men in society, and women are looked down upon.

Keywords: psychological violence, economic violence, physical violence, sexual violence, trauma, violent, stress, injury.

Ayol oilaning qo‘rg‘oni, jamiyatning ko‘rki, uyning sarishtasi, farzandlarning dastagidir. Ammo ming afsuski, jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik global muammoga aylanib bormoqda. Nafaqat bizning mamlakatda balki butun jamiyatda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik juda ko‘p uchraydigan hodisa hisoblanadi. Jamiyatda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, kelib chiqish sabablarini o‘rganish, ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va uni bartaraf qilish usullarini ishlab chiqish gender tenglik tushunchasini anglashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustaxkamlash kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PK-3808-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 2 sentyabrida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PK-4602-son qarori oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishdagi asosiy qonun xujjatlari bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi 23 mart kuni bo‘lib o‘tgan majlisda tegishli qonunni ikkinchi va uchinchi o‘qishda qabul qilib, hujjatni tasdiqlash uchun Senatga yubordi.

Xususan, xotin-qizlar va bolalarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha eng zamonaviy xalqaro normalar va xorijiy tajribadan kelib chiqib, jismoniy zo‘ravonlik bilan bir qatorda **iqtisodiy va ruhiy zo‘ravonlik** uchun ham ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmoqda. Yurtimizda zo‘ravonlikni oldini olish hamda zo‘ravonliklar sonini kamaytirish maqsadida olib borilayotgan ishlar nafaqat ayollar balki oilalarda tarbiya topayotgan farzandlar taqdirini ham o‘zgarishiga imkon yaratadi.

Jamiyatimizda zo‘ravonlik oqibatida jabr ko‘rayotgan xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatda tutgan o‘rnini mustaxkamlash, zo‘ravonlik muammosini o‘rganish, ayniqsa, oilalarda vujudga keladigan oilaviy nizolarni oldini olish va ularni bartaraf qilish usullarini tushunish juda muhim vazifadir. Bugungi kunda jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik murakkab ijtimoiy muammodir. “Zo‘ravonlik o‘zi nima?” Zo‘ravonlik tushunchasi – ayollarga nisbatan ruhiy, jismoniy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir

o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘ligi, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy xarakat (xarakatsizlik) tushuniladi. Er-xotin munosabatlarida zo‘ravonlik ayolga zarar keltirishi bilan birga, ijtimoiy hayotda yutuqlarga erishishiga xalaqit berib, mehnat unumdorligini pasaytiradi, sog‘likni saqlash, sud ishi va IIB bilan bog‘liq xarajatlarni oshiradi, shu bilan bir qatorda jamiyatning ham ma’naviy ham madaniy taraqqiyotiga zarar keltiradi.

Ayni damda zo‘ravonlik muammosining o‘rganilishi ijtimoiy psixologiyada ayollarga nisbatan kuch ishlatishga va oilada yuzaga keladilagan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bilan xarakterlanadi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bilan bog‘liq muammolarning o‘rganilishi bir necha fanlar (psixologiya, tibbiyot, huquqshunoslik, falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot va boshqalar) majmuini jipslashtiradi. Ijtimoiy tengsizlikning mohiyati va kelib chiqishi haqidagi klassik nazariyalar O.Kont, E.Dyurkgeym, M.Veberom, K.Marks, F.Engels, Z.Freyd tomonidan shakllantirilgan. Er-xotin munosabatlarini ilk nazariy tahlili D.Mill, T.Gobbs, J.Russo, J.Lokk, Sh.Fure, K.Stentonlarning ilmiy izlanishlarida uchraydi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosining konsepsiyasi ijtimoiy ziddiyat nazariyasi bilan xaraktelanadi.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lsa, ayol oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi hisoblanadi. Oilalardagi barqaror qadriyatlar, urf-odatlar davlatning ijtimoiy rivojlanishiga uzluksiz ta’sirini ko‘rsatadi. Hozirgi davrda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari dolzarb muammoga aylanib qoldi.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida “zo‘ravonlik-xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan taxdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘ligi, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan gayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)" - deya ta’riflanadi.

“O‘ziga, o‘zgalarga, insonlar guruhiga yoki jamiyatga qarshi qaratilgan xaqiqiy yoki taxdid shaklida jismoniy kuch ishlatish natijasida tan jarohati yetkazish, o‘lim, ruhiy jarohatlar, rivojlanish nuqsonlari yoki har xil turdagi zararlar yetkazish”.

G.N. Kireev zo‘ravonlikni shunday ta’riflaydi: “Zo‘ravonlik – bu odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, ular mavjudligining tabiiy, ob’ektiv sharoitlariga qarama-qarshi munosabat asosida shakllanadi va egalik qilish, bostirish, sub’ekt irodasiga bo‘ysunish, uning ustidan hukmronlik qilish”.

L.V.Serdyukning ta’kidlashicha, “Zo‘ravonlik – shaxsga (yoki bir guruh shaxslarga) uning irodasiga qo‘shimcha ravishda yoki unga qarshi amalga oshiriladigan va unga organik, fiziologik va ruhiy jarohat yetkazishi, erkinligini cheklashi mumkin bo‘lgan tashqi qasddan va noqonuniy ta’sir kursatishdir.

G.F.Belyaevaning fikriga ko‘ra, “oilaviy zo‘ravonlik – bir kishining nazorat o‘rnatish uchun boshqasiga nisbatan xatti-xarakatining modeli”dir.

R.F.Dobash, R.P.Dobash oilaviy zo‘ravonlikka shunday ta’rif beradilar, oilaviy zo‘ravonlik-erkaklarning dominant pozitsiyasi va ayollarning xatti-xarakatlari ustidan nazorat qilish natijasidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi konunida zo‘ravonlikning to‘rtta asosiy turi belgilangan.

Jismoniy zo‘ravonlik – tanaga shikast yetkazish, tishlash, bo‘g‘ish, itarib yuborish, o‘tkir tig‘li buyumlar bilan qo‘rqitish yoki yaralash, tepish, turtkilash, qiynoqqa solish, musht bilan urish kabilarni o‘z ichiga oladi. Jismoniy zo‘ravonlikdan ayollar asosan, yuz qismining momataloq bo‘lishi, tanadagi jarohatlar, ko‘karishlar, kuyishlar, suyaklardagi sinishlar, miyaga qon quyilishi, quloq pardasiga shikast yetishi, burun sinishi, ichki organlarga shikast yetishi, lablarning yorilishi kabilar bilan shikastlanadilar.

Ruxiy zo‘ravonlik – zo‘ravonlikning ushbu turi juda keng tarqalgan hisoblanadi. Bu zo‘ravonlikning belgilari inson tanasida kuzatilmaydi. Psixologik zo‘ravonlik bilvosita amalga oshiriladi. Ko‘pchilik ayollarimiz ruhiy zo‘ravonlikni anglab yetmaydilar ham. Ammo,

psixologlarning fikriga ko‘ra, ruhiy zo‘ravonlik er-xotin o‘rtasidagi zo‘ravonlikning keng tarkalgan turi bulib, psixologik xarakterdagi inqiroz sanaladi. Ruhiy zo‘ravonlik qurbonlari insonni xaqorat qilish, his-tuyg‘ularni tan olmaslik, majburlash, tuhmat qilish, qo‘rkitish, uning va yakinlarining sha’nini kamsitish, qadr-qimmatini yerga urish, qamab qo‘yish, inson erkinligini cheklash kabi holatlar bilan aziyat chekishadi.

Jinsiy zo‘ravonlik – zo‘ravonlikning yana bir keng tarqalgan turidir. Jinsiy zo‘ravonlik oilaviy munosabatlarda er-xotin o‘rtasida, yaqin qarindoshlar hamda begona shaxslarning ayollarga va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etishidir. Jinsiy zo‘ravonlik ayollarning roziligisiz shaxvoniy hislarni qondirishga qaratiladi. Jinsiy zo‘ravonlik qurbonlari asosan, jinsiy aloqani shafkatsiz amalga oshirish, zo‘rlash yo‘li bilan jinsiy aloqaga majburlash, jinsiy kamsitish, avval kaltaklab, so‘ng jinsiy aloqa qilish, pornografik ko‘rinishdagi buzuq xatti-harakatlar bajarishga majburlash, doimiy ravishda zinokorlikda ayblash, ayolga nisbatan faqat jinsiy ob’ekt kabi munosabatda bo‘lish kabilar bilan azoblanishadi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik – ushbu zo‘ravonlik turi erning ayolni ta’lim olish va mehnatga bo‘lgan huquqini cheklash, pul mablag‘larini o‘z xohishiga ko‘ra sarf qilishdan mahrum qilish kabilar bilan tavsiflanadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, zo‘ravonlik qurboni aylangan ayollar zo‘ravonlikning bir nechta turlaridan aziyat chekadilar. Zo‘ravonlik asosan zanjirli xarakterga ega. Biri ikkinchisi bilan bog‘langan holda amalga oshiriladi. Ayrim ayollar esa o‘zlariga nisbatan zo‘ravonlik amalga oshirilayotganligini anglamaydilar xatto. Ammo prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun asos bo‘la oladi.

Ushbu tadqiqot 2022-2023 yillarda bir qancha bosqichda olib borildi. Tadqiqotning maqsadi jamiyatdagi ayollarga nisbatan tahdidlarning ijtimoiy psixologik ahamiyatini o‘rganish, zo‘ravonlikning vujudga kelish sabablarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha taklif va xulosalar ishlab chiqishdan tashkil topgan.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida Sirdaryo viloyati, Guliston shahrida 20 nafar zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar qatnashishdi. Tadqiqotda suhbat, so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv, test metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, zo‘ravonlikka uchragan ayollarning erlari orasida yosh farqining kattaligi, turmush o‘rtoqlarining ma’lumot darajasi bir-biriga mos kelmasligi bilan tavsiflanadi. Tajriba guruhidagi ayollarning ko‘pchiligida erlarning ishsizligi, moddiy yetishmovchilikning mavjudligi, shuningdek, erning giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar iste’mol qilishga mukkasidan ketganligi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, ishsizlik yoki ishdagi maoshning yetarli emasligi, ma’lumot darajasining quyi ko‘rsatkichga ega ekanligi, diniy bilimlarning yetishmasligi, hamda er-xotin munosabatlarida yetarlicha malakaga ega bo‘lmagan er hukmronlikni qo‘lga olish uchun kuch ishlatishga majbur bo‘ladi. Tadqiqotimiz davomida ayollarning ish bilan band bo‘lishi, erkaklarda asossiz rashk hissini uyg‘onishi zo‘ravonlikning asosiy sabablaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Suhbat, so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv, test metodlari va empirik tadqiqot natijalari asosida ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablarini bir necha guruhlarga ajratdik:

- o‘zaro ishonchning yo‘qligi;
- er-xotin munosabatlarida uchinchi shaxsning aralashuvi;
- er yoki xotinning spirtli ichimliklar iste’mol qilishi;
- diniy va ahloqiy tarbiyaning yo‘qligi;
- moddiy yetishmovchilik;
- turmush o‘rtog‘ini asossiz rashk qilish;
- fikrlar nomutanosibligi;
- erkak yoki ayolning xiyonati va boshqalar.

Muammoning yechimi bo‘yicha takliflar: Zuravonlikka uchragan ayollar bilan ishlovchi reabilitatsiya markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularda ayollar bandligini ta’minlash, shuningdek zo‘ravonlik oqibatida stress holatini boshdan kechirayotgan ayollarga

motivatsion treninglar o‘tkazilishi, zo‘ravonlikni sodir etgan erkaklarga nisbatan diniy va ahloqiy bilim berilishi hamda ayollarsiz jamiyatni tasavvur qilib bo‘lmaslikni uqtirish, ishsiz erkaklarni bandligini ta’minlash usbu holatni oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq, va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ,-561-son Qonuni. - https://lex.uz

2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi O‘RQ-562-son qonuni. (qonun xujjatlari milliy bazasi 03.09.2019 yil

3. Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. -T. 2012.

4. Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире – М.: Издательство «Весь Мир», 2002, 4-б.

5. Киреев Г.Н. Сущность насилия. - М.: 1990. 18-б

6. Сердюк Л.В. Насилие. Криминологическое и уголовно-правовое исследование. - М.: 2002. С. 179.

7. Dobash R.F., Dobash R.P. Violence against wives: a case against patriarchy. NY, 1979.

9. Гендерный подход к проблеме насилия: психологические стратегии и роль образовательных программ / Ред. коллег.: Г.Ф. Беляева и др. - М.: 2002. С. 31